

**AMIR TEMIR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BOSHQARUV TIZMI.**

**Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi**

*e-mail:*ruxshonamamasaidova518@gmail.com

*Tel:*+998944611363

**Xursanova Farangiz Ulug'bek qizi**

*e-mail:*farangizxursanova80@gmail.com

*Tel:*+998947482949

**Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li**

*e-mail:*nurmuhammadu06@gmail.com

*Tel:*+998903777796

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan va hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin.

**Kalit so'zlar:** 1336-1405-yillar hayoti, markazlashgan, 1402-yilgacha, Sharafiddin Ali Yazdiy, K. Marke, tadbirlar, turk va tojik, o'rta asr, harbiy xurujlari.

**Аннотация:** В данной статье реформы, проведенные Амиром Темуром в сфере государственного управления, а также во внутренней и внешней политике, привели к усилению его королевства в его время, а также широкий спектр реформ, реализованных в Независимой Прогвешающая день ото дня Республика Узбекистан Важные реформы в сфере государственного управления можно рассматривать как доказательство того, что опыт великого государственного деятеля Амира Темура используется на практике и опыт наших прадедов используется эффективно.

**Ключевые слова:** жизнь 1336-1405 гг., централизованная, до 1402 г., Шарафуддин Али Язди, К. Марке, события, турецкие и таджикские, средневековье, военные нападения.

**Abstract:** In this article, the reforms carried out by Amir Temur in the field of public administration, as well as in domestic and foreign policy, led to the strengthening of his kingdom in his time, and the wide-ranging changes that are being implemented in the Independent Republic of Uzbekistan, which is flourishing day by day. Important reforms in the field of public administration can be seen as a proof that

*the experience of the great statesman Amir Temur is being used in practice and the experience of our great grandfathers is being used effectively.*

**Key words:** *life of 1336-1405, centralized, until 1402, Sharafuddin Ali Yazdi, K. Marke, events, Turkish and Tajik, Middle Ages, military attacks.*

Buyuk sarkarda va davlat arbobi tarixda o'chmas iz qoldirgan o'z aholisi tinchligini o'zining tinchligidan ustun qo'ygan Amir Temur ibn Amir Tarag'ay Bahodir 1336-1405-yillar hayoti davomida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davr 1360-1386-yillarni o'z ichiga oladi. Temur bu davrda Movarounnahrda Mug'ul xonligidan mustaqil kuchli markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan turk va tojik zodagonlari oq suyaklari kabi sotsial kuchlar bilan birgalikda o'rta asr o'zboshimcha feodallariga markazlashish va birlashishga zid harakatlarga mamlakatni parchalangan holatda saqlashga intiluvchilarga o'zaro urushlarga undovchilarga qarshi kurash olib bordi. Ikkinchi davr 1386-yildan boshlanib 1402-yilgacha davom etadi. Bu davr Temurning uch yillik, besh yillik, yetti yillik deb ataluvchi harbiy xurujlari yoki, Sharafiddin Ali Yazdiy ta'biri bilan aytganda, harbiy yurishlari bilan harakatlanadi. K. Marke Temur faoliyati haqida gapirib, Temur o'zi tuzgan yangi podsholikning davlat tuzumini mustahkamlaganligini, tuzuk qonunlar joriy qilganligini, bu tadbirlar esa uning ayovsizlik bilan amalga oshirgan bosqinchiliklariga tamoman zid ekanligini qayd etgan edi [1; 15b]. Amir Temur saltanatning shu to'rt ustuniga suyanib ish tutdi va davlatini shakllantirishda, uni boshqardi. El-yurtining taqdiri, raiyatning turish-turmushi, markaziy davlat tuzimi, uning shahar, viloyat, tuman va katta-kichik qishloqlardagi idoralarining ish yuritishiga bog'liqdir va yana o'sha muassasa va idoralarda xizmat kdlb turgan mansabdorlarning nasl-nasabli, imon-insofli, tadbirkor bo'lishlariga ham bog'liq. Amir Temur davlat tizimini shakllantirishda shunga ham alohida e'tibor berdi. Masalan, hukumatning ijroiya muassasalari (devonlari)ni boishqarib turuvchi vazirlar, Amir Temurning fikricha, to'rt sifatga ega bo'lishlari talab qilingan. Birinchisi — asillik va toza nasllik; Ikkinchisi -aql-farosatlilik; Uchinchisi — sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishlik; To'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Vazirlikka tayinlash, unga el-yurtning inon- ixtiyorini topshirish xususida xazrat sohibqironning aytgan mana bu gap ham muhimdir: «Kimki shu to'rt sifatga ega bulsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyik; kishi deb bilsinlar, uni vazir yoki maslahatchi qilib tayinlasinlar, mamlakat ishla-rini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat (hokimiyat) berilsin». [2; 89b]. Daftardor — Devoni mustavfiy (molil vazirligi)da oylik-soliq; to'lovchilar ro'yxati, soliqchilar daftarini yurituvchi mansabdor. Jalol ul-islom — oliy hukmdorning buyrug'i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor. Jarchi —

podshohning farmonlari va buyruqlarini (masalan qo'shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarni) aholiga yetkazib turuvchi mansabdor. Zinbardor — podshoh (xon) otiga egar-jabduk, urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqtida xonning zaxiradagi otini o'zi bilan birga yetaklab yurgan. Kadxudo — qishloq oqsoqoli. Kutvol — qal'a xokimi. Zimmasiga uni doimo mudofaaga tayyor holda tutish, u yerdagi qo'shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan. Majlisnavis — oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig'ilishlarida bo'lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib. [3;51b] Miroxur — Podshoh (xon) otxonalari qarang turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpar va otxonalarga mutasaddisi bo'lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig'i bilan urush paytida qo'shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan. Munshiy — podshoh (xon) ning shaxsiy kotibi. Muftiy — musulmon qonunshunoslarining boshlig'i. Shariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm (fatvo) faqat uning tasdig'idan keyin kuchga kirgan. Muhtasib — musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkomlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim XVIII — XIX asrlarda Buxoroda rais deb atalgan. — bosh nazoratchi; shahzodalar va mansabdorlar tepasiga qo'yilgan nazoratchi. Muhandis — oliy hukmdorning amri bilan kurilayotgan binoning shakli va qanday qurilishi kerakligini aniqlab beruvchi beruvchi mutaxassis; Muhosil — buysondirilgan shahar xalqdan o'lpon undiruvchi mansabdor. Filbon — podshoh (xon)ning urushga o'rgatilgan va tashuvchi fillariga qarang turuvchi xizmatkor. Sadr a'zam — sadrlar boshlash, zimmasiga vaqt bilan bog'liq, ishlarni nazorat qilib turish yuklatilgan oliy mansab davlatning barcha devonlari ishini nazorat qilib turuvchi oliy mansabdor. Tavochi — harbiy yurish oldidan barcha viloyat, tuman va uluslardan belgilangan yerga lashkar yig'ib keluvchi harbiy mansabdor. Odatda, u bu ishga jarchi bilan birga — xon. (podshoh) turar joylarini supirib-sidirib turuvchi, oliy hukmdor oldiga mexmon kelganda kichik xizmatkor. Fiqh — fiqh (musulmon qonunchiligi) ilmining bilimdoni. Amir Temur saroyida yetuk o'rin tutgan. Aftidan ushbu lavozim egasi davlatda qozilar ishini nazorat qilgan va qonun ustuvorligini tartib podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi qoziaskar — harbiy sudya. Ish yurituvchi sudya — shariat ko'rsatmalari asosida Shubhasiz yana ko'pgina katta-kichik mansablar bo'lgan. Bu masalani, yangi manbalar asosida chuqurroq o'rganish kerak bo'ladi. Lekin, keltirilganlardan ham Amir Temur kuchli markazlashgan davlatga asos solgan. Mahalliy hokimiyat, ya'ni viloyat, o'lka va uluslardagi hokimiyat tepasiga shahzodalar, yirik amirlar qo'yilgan. Ularning yonida dorug'a (shahar hokimi), kutvol (qal'a boshlig'i), ko'zi kabi mansabdorlar turishgan. Shu o'rinda yana bir muhim gapni aytib o'tmoqchimiz, Amir Temur faqat Movarounnahrni o'z davlati tasarrufida idora qildi. 1370—1393 yillar mobaynida bo'ysundirilgan mamlakatlar (Mug'iliston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Iroq; va boshqa mamlakatlar) 1390—1393 yillarga qadar o'zlarining mahalliy hukmdorlari (Kartlar, Sarbadorlar, Aliylar, Muzaffariylar,

Jaloiiriyalar va b. k.,) qo'lida qoldirildi. Butun hokimiyat ularning qulida bo'lib, markaziy hukumatga (Samarqandga) xiroj va soliqlarning bir qismini to'lab turganlar va oliy hukmdorga harbiy yurishlar paytida askar yuborib turish majburiyatini bajarganlar. [4;54-56b]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, chindan Amr Temur adolatli davlat hukmdori bo'lgan ekan. Davlat boshqaruvi sohasida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirgan bo'lib shuningdek, davlatimiz rahbarlari ham bugungi kunda uning siyosati hamda boshqaruv tizmidan foydalanib kelishmoqda. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev uning shaxsiga alohida e'tibor qaratdi, hamda uning davridagi ma'lum bir udum va an'analarni davlatda tatbiq qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, haqiqatda ham Amir Temur Sohibi adl, Sohibi jahonlardan biri ekan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibrohim Mo'minov. "Amir Temurning O'rta osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" 1993-yil. 15-bet.
2. Amir Temur "Temur tuziklari" 19996-yil yangi tahrir. 94-bet.
3. Bo'riboy Ahmedov "Amir temur darslari" 2001 yil- Toshkent. 51-52-betlar.
4. 3- manba 54-56-betlar.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -Toshkent: O'qituvchi, 1994-yil
6. Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. -Toshkent, 1991-yil